

TA'LIM TIZMIDA O'QITUVCHINING DARS O'TISH MAHORATI HAMDA UNING AHAMIYATI

Jo'rayeva Maxsima Xamraqulovna

Qarshi Davlat Universiteti

*Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish
yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasi, o'qituvchi*

Anatatsiya: *Bugungi kunda eng muhim islohotlardan biri bu ta'limda ro'y berayotgan islohotlardir. Ushbu maqolada ta'lim sohasida o'qituvchining o'rni, vazifasi va o'quvchilarining oldiga qo'ygan burchi va maqsadlariga erishishda o'qituvchining vazifasi dars o'tishda xorij texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda hozirgi kunda o'qituvchilarga berilayotgan imkoniyatlar haqida boradi.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy, pedagog, texnologiya, tadqiqot, didaktika, fidoiylilik, vatanparvarlik, avlod, 10000 soat, salohiyat, jamiyat, odoq-axloq, motivatsiya, ta'lim texnologiyasi.*

Anotation: *One of the most important reforms today is the reforms taking place in education. This article talks about the role of the teacher in the field of education, the role of the teacher in the achievement of the duties and goals set for his students, the effective use of foreign technologies in teaching, and the opportunities given to teachers today.*

Keywords: *modern, pedagogue, technology, research, didactics, dedication, patriotism, generation, 10000 hours, potential, society, manners - ethics, motivation, educational technology.*

Insonning qanoti – uning g'ayratidir. Darhaqiqat, har bir pedagogda yuragining tubida o'z ishiga bo'lgan g'ayrat va shijoat bo'lsagina u yuksak marralarni zabt eta oladi. Bunga o'qituvchi qalb qo'ri va fidoiyligi bilan erishadi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: “ Har bir pedagog yaxshi biladiki, tarbiya, odoq-axloq sohasida “amaliy namuna” hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Farzandlarimizga, avvalo, o'zimiz hamma sohada – Vatanga, xalqqa sadoqatli bo'lishga , ilmga , kasb – hunarga mehr qo'yishga , ota-ona , jamiyat oldidagi burchimizni sidqidildan ado etishda amaliy namuna ko'rsatishimiz kerak. Har bir jamiyatning orzusi mavjud bo'lganidek hozirgi kunda O'zbekiston orzusi mavjud, ya'ni bir davrlarda Buyuk britaniya ozusi, Amerika orzusi bo'lganidek hozirgi kunda O'zbekiston orzusi mavjud. Bu orzuda jamiyatning maqsadlari bir biri bilan mushtarak ya'ni “Sog'lom avlod, Sog'lom kelajak” shiori ostida birlashadi. Bu jamiyatning orzusiga yetishishda pedagogning o'ni beqiyosdir

Har bir sohaning eng zo'r mutaxasisi bo'lishi uchun shu jumladan eng zo'r pedagog bo'lish uchun ham sizda “10000 soat” qoidasi ishlashi kerak. “Zukkolar va Landavurlar” kitobida 10000 soat qoidasi haqida tajriba o'tkazilgan. Bu tajriba skripkachilar o'rtasida o'tkazilgan. O'qituvchilar yordami bilan skripkachi talabalarni uch guruhga ajratishadi. Birinchi guruhga salohiyatini dunyo e'tirof etadigan darajada deb baholaganlarni, ikkinchi guruhga “kelajagidan umid bor” larni kiritishdi. Uchinchi guruhga – malakali musiqachi

bo‘lishidan umid qilinmaydigan nari borsa maktabda musiqadan dars berib yuradiganlarni jamlashdi. So‘ng hamma o‘quvchilarga bir xil savol berishdi: Ilk bor qo‘lingizga skripkani olganingizdan to bugungacha necha soat mashq qilgansiz ?

Hamma ishtirokchilar deyarli bir vaqtda boshlashgan, besh yoshlardan qo‘llariga cholg‘u ushlagan . Dastlabki bir necha yil ichida hammalari bir xil – haftasiga ikki-uch soat mashq qilishgan. Taxminan sakkiz yoshlardan farq boshlangan. Sinfda eng yaxshi hisoblangan talabalar boshqalarga qaraganda eng ko‘p mashq qilganlar: to‘qqiz yoshlarda haftasiga olti soat, 12 yoshda sakkiz soatdan ; 14 yoshda o‘n olti soatdan, shu tariqa 20 yoshgacha mashq qilganlar, - ya‘ni o‘z mahoratlarini tinimsiz oshirganlar – keyinchalik haftasiga 30 soatdan mashq qilganlar. Shunday qilib eng yaxshi talabalarning natijalari umumlashtirilganda , ular 10000 soatdan ziyod mashq qilganlari oydinlashgan. O‘rta darajadagi talabalarda soatlar miqdori 8000 bo‘lgan, bo‘lg‘usi musiqa muallimlari 4000 soatdan ko‘p mashq qilganlar. Bu tajribadan so‘ng ko‘plab sohalarda ham tajribalar o‘tkaziladi, xususan, pedagogika sohasida ham o‘z samarasini ko‘rsatgan. Bu fikr-faoliyatning murakkab turlarida yuksak mahoratga erishish uchun muayyan amaliyot zarur, degan fikr, malakaga oid tadqiqotlarda ko‘p aytilgan. Olimlar hatto mahoratga eltadigan sehrli raqamni ham belgilab qo‘yganlar: 10000 soat. Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki insonning iste’dodi qancha ko‘p charxlangan bo‘lsa sizni shuncha muvaffaqiyatga yetaklaydi. Pedagoglarimiz har bir o‘quvchining qiziqishidan kelib chiqqan holda yondashishi kerakdir. Finlandiya ta’lim mo‘jizasi kitobida Timoti Uoker “Maroqli dars o‘tishning 33 siri” kitobida shunday yozadi: “Olimlarning fikricha , baxtning asosiy tarkibiy qismlaridan biri – bu daxldorlik tuyg‘usidir. Unga erishish uchun o‘qituvchi sinfda har xil strategiyalarni qo‘llashi mumkin. Maroqli dars o‘tishning 33 siridan quyidagilarni havola etamiz.

Muvozanatni saqlang qismida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga muntazam ravishda onglilik texnikasini amalda qo‘llashlarini kuzatish uchun maxsus eksperiment ham o‘tkazilgan. Olimlar tomonidan quyidagi o‘zgarishlar qayd etilgan.

a) bolalar stresni yaxshiroq yengishgan , ularda hayotga bo‘lgan muhabbat ortib, kognitiv (ongli) nazorat o‘nglangan.

b) hayrihohlik va jismlarga keng ma’noda qarash qobiliyati ortib, o‘z – o‘ziga baho berish darajasi va hissiyotini nazorat qilish ko‘nikmasi rivojlangan.

c) o‘quvchilar depressiya belgilaridan kamdan kam hollarda noliy boshlashgan va sinfdoshlariga nisbatan agressivlik ham kamaygan bolalar jamoat manfaatlarini haqida ko‘proq o‘ylaydigan bo‘lishga bunday bolalarning sosiometrik (ijtimoiy o‘lchamdagi) maqomi ortgan (o‘rtoqlari orasida ancha obro‘ orttirishgan)

“Onglilik” atamasini biolog Jon Kabat-Zinn 1970-yillari fanga olib kirgan. Onglilikni bolalarda rivojlantirish uchun fan o‘qituvchilari “ongli eshitish” metodidan foydalanadi. Bu metodni Uoker quyidagicha o‘tkazadi:

”Hozir biz siz bilan ongli eshitiash bo‘yicha mashq bajaramiz va u bizga o‘zimizni bo‘sh q‘yishimizga , diqqatimizni jamlashga yordam beradi. Keling, hammamiz to‘g‘riga qarab o‘tiramiz va qo‘llarimizni tizzalarimiz ustiga qo‘yamiz. Bir necha daqiqadan keyin men qo‘ng‘iroqchani chalaman va ovozi tingunicha hammamiz quloq solib turamiz. Masalan men ko‘zlarimni yumib eshitsam bor diqqatim bilan eshitaman, kimgadir esa bu noqulay shunga



o‘xshash metodlar ayna boshlang‘ich ta‘limda ko‘proq o‘tilsa o‘quvchilar ongli ravishda o‘ziga nima yoqishlari yoki nima yoqmasliklarini aniqlab olishadi.

O‘quvchilar bilan birga rejalashtiring. O‘quvchilar bilan bilan birgalikda rejalashtirishni turli usullarda qo‘llash mumkin. O‘quvchilar bilan o‘quv jarayonining yo‘nalishini muhokama qilishga mavzu yoki loyiha boshlanishidan oldin vaqt ajratib olish o‘ta muhim hisoblanadi. Darslarni tashkil etishda KWL dan foydalanish va uning ma‘nosi quidagicha: “ what we know “ (biz nimani bilamiz ? “), “ what we want to know ?” (biz nimani bilishni istaymiz ?”), va “ what we learned ?” ,(biz nimani o‘rgandik ?”). KWL jadvalini tuzish bu bolaga tayanch bilimlarni berish va ularning o‘qishda qanchalik oldinga siljiganligini bilishning samarali va oqilona usulidir. Ushbu metodni 1980-yillari Donna Ogl ishlab chiqqan. Haqiqatdan ham bu metod juda ham pedagog uchun samarali metodlardan biri hisoblanadi.

Mohirlik. 2001-yilning 4-dekabrda PISA testlarining birinchi natijalari e‘lon qilinganida Finlandiya birinchi o‘rinni egallagan. Finlandiya ta‘lim tizimi keyinchalik o‘tkazilgan ya‘ni 2003 va 2006-yillarda ham o‘tkazilgan PISA testlarida yetakchi o‘rinlarni barqaror saqlab qoldi. Shunda savol tug‘iladi shuncha yillar ichida qanday qilib ta‘lim tizimini barqaror saqlab qolish mumkin? .Bu savolga Timati Uoker quyidagicha ta‘rif beradi: “Qaysidir sohada o‘zining layoqatli ekanini his qilish – baxtning tayanch elementlaridan biridir. Aynan shu baxtning tayanch elementlarini o‘z vujudimizda his qilishimiz bizni muvaffaqiyat cho‘qqilari sari yetaklaydi. Biz o‘qituvchilar ushbu ehtiyojni qondirish barobarida o‘quv jarayonidan quvonch olishga hissa qo‘shamiz. O‘quvchilarda mohirlik tushunchasini shakllanishi , uni mukammallikka intilishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun maroqli dars o‘tishning 33 sirida mohirlik ham o‘rin olgan. O‘qituvchi obro‘si baland bo‘lgan yurtning buguni ham, kelajagi ham buyuk bo‘ladi. Prezidentimiz masalaning ana shu nozik tomonini chuqur o‘ylab, ta‘lim sifatiga, o‘qituvchilarga e‘tiborni oshirmoqda. Maqsad — ta‘lim tizimini oyoqqa qo‘yish. Busiz islohotlar o‘zini oqlamaydi. Modomiki shunday ekan, ushbu yo‘nalishdagi islohotlar samaradorligiga butun xalq, jamiyat mas‘ul. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “Najotimiz maktabda, najotimiz ta‘limda, najotimiz bilimda”. Davlatimiz rahbari 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida ta‘lim sifatini oshirish va yangi avlod darsliklarini joriy etishga bag‘ishlangan ko‘rgazma-taqdimot bilan tanishish chog‘ida ham ta‘lim yo‘nalishidagi islohotlar, har bir inson farzandlarini muallimga ishonib topshirishi haqida to‘xtalarkan, oxirgi yillarda ta‘limda o‘qituvchining kayfiyati, dars berishi o‘zgarganligini alohida ta‘kidladi. Prezidentimiz 2023-yil 1-yanvardan boshlab 14 ta hududda yangi darsliklar tajriba asosida o‘qitilishini aytdiki, bu juda to‘g‘ri tashabbus, deb o‘ylayman. Sababi ushbu darsliklar, amaldagilaridan farqli ravishda, quruq ma‘lumotlarni yodlatish yoki o‘qish-yozishni o‘rgatishga emas, balki o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash, ijodkorlik va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Yangi darsliklar bolalarga o‘yin orqali ta‘lim berishga ham moslashgan. Ulardagi ma‘lumotlar rang-barang rasmlar, grafikalar, sodda matnlar orqali berilgani o‘quvchini zeriktirib qo‘ymaydi, aksincha, mavzuga yanada qiziqtiradi. Bir so‘z bilan aytganda, bugun jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fan taraqqiyotisiz yechish qiyin. Zero, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ilm-fan, ta‘lim va tarbiya



ekani isbot talab qilmas haqiqatdir. Ilm-fan taraqqiyoti esa yoshlarga mukammal ta’lim berish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish orqali yuzaga keladi. Ta’lim sohasidagi o’zgarishlar, shubhasiz, yurtimizni faqat yuksaklikka ko’taradi. O’qituvchining o’quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi, o’rnini to’ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Muomala o’zaro munosabatlar doirasida sodir bo’ladi. Boshqarish vositasi bo’lgan muomala o’quvchilarning faoliyatiga hamrohlik qiladi nihoyat, boshqarish vositasi bo’lgan muomala faoliyatidan keyin boradi.

Muomala - insonlar o’rtasidagi o’zaro aloqa vositalaridir. Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shuning uchun ham til - aloqa quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo’lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro’-e’tibor topadi. So’zga chechanlik, hech qachon kishiga obro’ keltirmaydi. Shuning uchun ham o’tmishda yashab o’tgan mutafakkirlarimiz tilga, so’zga hurmat bilan yondashishlarini uqtirib o’tganlar.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahoratiga ega bo’lgan o’qituvchi, bilim saviyasining va tafakkurining kengligi, o’tkir dunyoqarashi, ma’naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati, ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarning mutanosibligi har qanday dars va darsdan tashqari ta’lim-tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyatini ta’minlovchi hamda jonli muloqotini tashkil etuvchisi hisoblanadi. Mahoratli o’qituvchi faoliyatining asosida nimaga o’rgatish, kimga o’rgatish, qanday o’rgatish, masalasi turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.M.Mirziyoyev. “Taraqqiyot Strategiyasi”. O’zbekiston.2022yil
2. M.K.Shirinov, “Umumiy pedagogika” Darslik. - T.: "Navro’z", 2016.
3. Timoti Uoker. “Finlandiya ta’lim mo’jizasi”.Global book. 2023
4. Malkolim Gladuel.“Zukkolar va Landavurlar”. Hilol nashr.2019